ISSN: 2181-4341, IMPACT FACTOR (RESEARCH BIB) – 9.145, SJIF – 5,431

Andijon viloyati “33-umumiy o’rta ta’lim” davlat

muassasasida direktor

Xamraqulov Akromjon Adhamjon o’gli

UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABLARIDA TA’LIM SIFATI MONITORINGI TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARBLIGI

Annotatsiya: Mazkur tezisda ta’lim sifati monitoringi tizimining mohiyati, uning rivojlanish bosqichlari va xalqaro tajribalar asosida takomillashtirish yo‘llari ko‘rib chiqiladi. Monitoring jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalarini qo‘llash, tahlil qilish, aniqlik va shaffoflikni ta’minlash orqali ta’lim sifatini oshirish imkoniyatlari yoritiladi.

Kalit so’zlar: ta’lim sifati, monitoring tizimi, baholash, diagnostika, raqamli vositalar, shaffoflik, strategik boshqaruv.

Annotation: This thesis explores the essence and importance of the education quality monitoring system, its developmental stages, and ways to improve it based on international best practices. It emphasizes the need for analytical and data-driven decision-making by integrating modern information technologies into the monitoring process. The paper also highlights how this system can serve not only as a statistical reporting tool but also as a strategic mechanism to diagnose real problems, generate solutions, and ensure transparency in the management of educational reforms.

Key words: education quality, monitoring system, evaluation, diagnostics, digital tools, transparency, strategic management.

Kirish. O‘zbekiston Respublikasida ta’lim tizimi mustaqillik yillaridan boshlab izchil isloh qilinmoqda. So‘nggi yillarda bu jarayon yangi sifat bosqichiga ko‘tarildi: davlat siyosatining eng ustuvor yo‘nalishi sifatida ta’lim sifatini oshirish belgilandi. 2022– 2026 yillarga mo‘ljallangan “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi” [1] hamda “Xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, malaka va shaxsiy rivojlanishga yo‘naltirish, shuningdek, raqamli transformatsiyani keng joriy etish kabi uzoq muddatli vazifalarni belgilab berdi. [2]

Ushbu islohotlar o‘quvchilarning qobiliyatlari va mehnat bozori talablarini uyg‘unlashtirish, hududlararo teng imkoniyatlar yaratish orqali ta’lim sifatini davlat siyosatining markaziy ustuvorligiga aylantirdi. Shuningdek, o‘qituvchi kasbini rivojlantirish, ta’limning turli bosqichlari o‘rtasida integratsiya yaratish hamda darslik va metodikaga yangi yondashuvlarni tatbiq etish kabi masalalar ham doimiy nazorat ostida bo‘lmoqda.

2022-yilda o‘tkazilgan xalqaro PISA baholashida 15 yoshli O‘zbekiston o‘quvchilari matematika, o‘qish savodxonligi va tabiiy fanlar bo‘yicha OECD o‘rtacha ko‘rsatkichlaridan sezilarli darajada past natijalar ko‘rsatdi. Matematika bo‘yicha o‘rtacha ball 364 ni, o‘qish savodxonligi bo‘yicha 336 ni, tabiiy fanlar bo‘yicha esa 355 ni tashkil etdi (OECD o‘rtacha ballari mos ravishda 472, 476 va 485). Ushbu natijalar O‘zbekiston o‘quvchilari 81 ta ishtirokchi mamlakat orasida matematika bo‘yicha 72- o‘rinda, o‘qish savodxonligi va tabiiy fanlar bo‘yicha 80-o‘rinda ekanligini ko‘rsatdi. [3]

Minimal malaka darajasiga (2-daraja yoki undan yuqori) erishgan o‘quvchilar ulushi matematikada 19 % (OECD o‘rtacha: 69 %), o‘qish savodxonligida 14 % (OECD o‘rtacha: 74 %), tabiiy fanlarda esa 19 % (OECD o‘rtacha: 76 %) ni tashkil qildi. Shu bilan birga, O‘zbekistonda yuqori natijalar (5 yoki 6-daraja) ko‘rsatgan o‘quvchilar deyarli yo‘q edi, bu esa o‘quvchilarning ilg‘or darajadagi kompetensiyalarni egallash imkoniyatining past ekanligini bildiradi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, ta’lim jarayonida ayrim sohalarda farqlar mavjud bo‘lib, ularni qisqartirish zarur.

Masalan, iqtisodiy jihatdan imkoniyatlari cheklangan o‘quvchilar (quyi 25 %) va imkoniyatlari yuqori bo‘lgan o‘quvchilar (yuqori 25 %) o‘rtasidagi matematika farqi 22 ballni tashkil etgan, bu OECD o‘rtachasidagi 93 ball farqidan ancha pastdir. Shu bilan birga, imkoniyati cheklangan 20 % o‘quvchi eng yuqori to‘rtlikka kirib, ta’limda muvaffaqiyatga erishgan, bu esa mamlakatda ijtimoiy moslashuv va akademik chidamlilik darajasining nisbatan yuqoriligini ko‘rsatadi. Gender bo‘yicha farqlar ham mavjud: matematika bo‘yicha o‘g‘il bolalar qizlardan 6 ball yuqori natija ko‘rsatgan, o‘qish savodxonligida esa qizlar o‘g‘il bolalardan 22 ball yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘lgan.

O‘zbekiston maktablarida o‘quv muhitiga oid ko‘rsatkichlar ham aniqlangan. O‘quvchilarning 78 % dars davomida o‘qituvchi har bir talabaga alohida e’tibor qaratadi, 79 % esa qo‘shimcha yordam oladi, bu OECD o‘rtachalaridan yuqoridir. Raqamli qurilmalar orqali chalg‘ish darajasi esa nisbatan past (20 %), maktablarda bezorilik holatlari ham OECD o‘rtachasidan past (qizlar 15 %, o‘g‘il bolalar 19 %). Shu bilan birga, o‘qituvchilar yetishmasligi va malaka darajasi pastligi tufayli 24–28 % o‘quvchilar dars sifatiga ta’sir etuvchi muammolarga duch kelmoqda.

Ushbu natijalar ta’lim sifatini monitoring qilish va boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish zarurligini ko‘rsatadi. Natijalarni yaxshilash uchun maktablar, qishloq va shahar hududlari, sinf va yo‘nalishlar bo‘yicha tafovutlarni qisqartirish, o‘qituvchilarning malakasini oshirish, dars rejalari va baholash tizimlarini samarali qilish hamda resurslarni adolatli taqsimlashga qaratilgan chora-tadbirlar muhim hisoblanadi.

Shuningdek, Xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi va PISA natijalari doirasida ta’lim sifatini oshirish yondashuvlari yangi kafolatlar, tashqi baholash mexanizmlari va ichki monitoring tizimini doimiy ravishda rivojlantirishni talab qiladi. Ta’lim sifatini monitoring qilish mexanizmi islohotlarning eng muhim bo‘g‘ini hisoblanib, muammolarni aniqlash, ularni tezkor bartaraf etish, resurslarni samarali taqsimlash va ta’lim jarayonini doimiy yaxshilash imkonini beradi.

Raqamli ma’lumotlar bazalari, ko‘rsatkichlar paneli, hududlar bo‘yicha taqqoslash, o‘qituvchilarning malaka oshirish dasturlari, maktablar faoliyatini baholash tizimi va tashqi ekspertizalardan foydalanish kabi mexanizmlarning keng joriy etilishi natijasida o‘quvchilarning savodxonligi, matematika va tabiiy fanlar bo‘yicha ko‘rsatkichlari barqaror ravishda yaxshilanadi hamda ta’lim tizimining sifat kafolatlari kengayadi.

Hozirgi holat va asosiy muammolar Ta’lim sifatini monitoring qilish tizimi O‘zbekistonda sezilarli darajada rivojlangan bo‘lsa-da, ayrim muammolar mavjud.

Ularni quyidagicha tahlil qilish mumkin:

Tashqi monitoring kuchli, ichki monitoring yetarli emas.Maktablar faoliyati tashqi ekspertlar tomonidan attestasiyalar va inspeksiyalar orqali nazorat qilinadi. Bu jarayonlar qat’iy va rasmiy, ammo ichki monitoring tizimi – ya’ni o‘z-o‘zini baholash, ichki baholash metodikasi

va doimiy tahlil – yetarli darajada tizimlashtirilmagan. Natijada, maktablar o‘z faoliyatini yaxshilash uchun tezkor va samarali mexanizmlardan foydalana olmaydi.

Monitoring asosan dars kuzatuv shaklida cheklangan.Maktablarning 68 % da monitoring jarayoni faqat dars kuzatuvlari bilan cheklanadi. Bu esa ta’lim sifatining keng qamrovli baholanishiga imkon bermaydi, o‘quvchilarning o‘zlashtirish jarayoni, o‘qituvchilar metodik ishlari va maktab ichidagi resurslardan foydalanish samaradorligi yetarlicha tahlil qilinmaydi. Raqamli platformalarning funksionalligi cheklangan. Maktablarda raqamli platformalar mavjud bo‘lsa-da, ularning 70 % dan ortig‘i faqat baholash va davomatni hisoblash uchun ishlatiladi. Tahlil qilish, trendlarni aniqlash va qaror qabul qilish uchun zarur bo‘lgan analitik imkoniyatlar yetarli emas.

Yagona milliy indikatorlar va baholash mezonlari tasdiqlanmagan.Ta’lim sifatini baholash uchun yagona milliy ko‘rsatkichlar va mezonlar hali to‘liq tasdiqlanmagan. Bu esa hududlararo va maktablararo taqqoslashni murakkablashtiradi hamda ta’lim sifatini oshirish bo‘yicha aniq strategiyalar ishlab chiqishga to‘sqinlik qiladi. Ichki monitoring tizimining takomillashtirilgan modeli (2025–2030) Ichki monitoring tizimi ta’lim sifatini doimiy ravishda oshirish va maktab ichidagi jarayonlarni samarali boshqarish uchun muhim vosita hisoblanadi. 2025–2030 yillarga mo‘ljallangan takomillashtirilgan model ta’lim jarayonini har tomonlama tahlil qilish, o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatini baholash, maktab boshqaruvi va ijtimoiy-psixologik muhitni yaxshilashga qaratilgan. Ushbu tizim maktab ichidagi ichki resurslardan maksimal darajada samarali foydalanish va ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Asosiy komponentlar.

1.Ta’lim jarayoni monitoring.Ta’lim jarayoni monitoringi dars sifatini, o‘quv dasturlarining bajarilishini va pedagogik texnologiyalarning qo‘llanilishini tizimli ravishda tahlil qiladi. Bu komponent o‘quv jarayonining samaradorligini oshirish, o‘qituvchilarning dars metodikasini mukammallashtirish va pedagogik yondashuvlarni zamonaviy talablar darajasida joriy etishga xizmat qiladi.

2.O‘qituvchi faoliyati monitoring.Bu yo‘nalish o‘qituvchilarning metodik ishlanmalari sifatini, malaka oshirish jarayonini va innovatsion texnologiyalarni qo‘llash darajasini baholashga qaratilgan. Maqsad – o‘qituvchilarning professional rivojlanishini rag‘batlantirish, pedagogik faoliyat sifatini oshirish va yangi ta’lim standartlarini tatbiq etishni qo‘llab-quvvatlashdir.

3.O‘quvchi rivojlanishi monitoring.O‘quvchilarni monitoring qilish bilim, kompetensiya, motivatsiya darajasi hamda ijtimoiy-psixologik holatni o‘z ichiga oladi. Bu komponent o‘quvchilarning individual o‘sish yo‘nalishlarini aniqlash, ta’lim. Jarayonini shaxsiylashtirish va har bir o‘quvchiga moslashtirilgan pedagogik yordam ko‘rsatishga xizmat qiladi.

4.Maktab boshqaruvi monitoring.Maktab boshqaruvini monitoring qilish hujjatlar yuritilishi, resurslardan foydalanish va boshqaruv samaradorligini baholashga yo‘naltirilgan. Bu maktab ichki boshqaruvini takomillashtirish, qaror qabul qilish jarayonini optimallashtirish va resurslardan samarali foydalanishni ta’minlash imkonini beradi.

5.Ijtimoiy-psixologik muhit monitoring.Sinf va maktabdagi psixologik atmosfera, konflikt holatlari va xavfsizlik darajasini kuzatish ushbu komponentning asosiy vazifasidir. Maqsad – o‘quvchilar va xodimlar uchun xavfsiz, ijobiy va qulay o‘quv muhitini yaratish, psixologik salomatlikni ta’minlash va ta’lim jarayonidagi salbiy omillarni kamaytirish.

6.Ota-onalar va jamoatchilik fikri monitoring.So‘rovnomalar, yig‘ilishlar va jamoatchilik bilan hamkorlik orqali ota-onalar va jamiyatning fikr-mulohazalarini yig‘ish ushbu komponent orqali amalga oshiriladi. Bu esa ta’lim jarayoniga keng ishtirokni ta’minlash, qaror qabul qilishda jamoatchilik nuqtai nazarini hisobga olish va maktabning ochiq boshqaruv tizimini rivojlantirish imkonini beradi.

Ichki monitoring tizimini takomillashtirish uchun 2025–2030 yillarda amalga oshiriladigan chora-tadbirlar quyidagicha rejalashtirilgan. Har bir tadbirning maqsadi. Aniq ko‘rsatkichlar, mas’ul ijrochilar, muddat va kutilayotgan natijalar bilan belgilangan. 1-jadval.

2025–2030 yillarga mo‘ljallangan ichki monitoring tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari natijasida quyidagi asosiy yutuqlarga erishish kutilmoqda: Ichki monitoring tizimining to‘liq raqamlashtirilishi. 2030-yilga kelib maktablarning 95 % da ichki monitoring tizimi to‘liq raqamlashtirilgan bo‘ladi. Bu o‘quv jarayonini real vaqtda kuzatish, avtomatik hisobotlar tuzish va indikatorlar asosida tahlil qilish imkonini beradi. Shu orqali ta’lim sifatini baholash va boshqaruv jarayonlari samaradorligi sezilarli darajada oshadi.

Xalqaro baholash natijalarining oshishi.O‘zbekiston o‘quvchilari PISA baholashida o‘rtacha 480+ ballga erishadi. Bu ko‘rsatkich o‘quvchilarning o‘qish savodxonligi, matematika va tabiiy fanlar bo‘yicha bilim va kompetensiyalarining barqaror ravishda oshganini bildiradi. O‘qituvchilarning kompetensiyaga asoslangan baholashni qo‘llashi. O‘qituvchilarning 80 % dan ortig‘i kompetensiyaga asoslangan baholashni tatbiq etadi. Bu esa darslarda individual yondashuvni kuchaytiradi, o‘quvchilarning malakalarini aniq baholash va rivojlantirish imkoniyatini yaratadi.

Maktab–ota-ona–jamiyat hamkorligi indeksining oshishi. Ichki monitoring tizimi joriy etilishi bilan maktab, ota-ona va jamiyat o‘rtasidagi hamkorlik indeksi ikki baravar oshadi. Bu qaror qabul qilish jarayonida keng ishtirokni ta’minlaydi, teskari aloqa tizimini mustahkamlaydi va ta’lim sifatini yaxshilashga yordam beradi. Xalqaro standartlarga moslik.Ichki monitoring tizimi xalqaro ISO 21001:2018 [4] standartiga to‘liq mos keladi.

ISSN: 2181-4341, IMPACT FACTOR (RESEARCH BIB) – 9.145, SJIF – 5,431

№	Tadbir	Mas'ul ijrochilar	Muddat	Moliyalash-tirish manbai	Kutilayotgan natija
1	"Ichki monitoring indikatorlari to'plami" milliy standartini ishlab chiqish va tasdiqlash (90 ta indikator)	Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Ilmiy-tekshirish instituti	2025-yil dekabr	Davlat byudjeti	Barcha maktablarda yagona baholash tizimi joriy etiladi, indikatorlar asosida ta'lim jarayoni va pedagogik faoliyatni aniq baholash mumkin bo'ladi.
2	Har bir maktab uchun yagona raqamli platforma (Kundalik.com + maxsus monitoring moduli) to'liq joriy etish	Yagona operator, Xalq ta'limi vazirligi	2026-yil sentyabr	Davlat xususiy sheriklik	Real vaqtda ta'lim jarayoni monitoringi: avtomatik hisobotlar, indikatorlar asosida tahlil va qaror qabul qilish imkoniyati.
3	Direktor o'rinbosarlari va metod birlashma rahbarlari uchun "Ichki monitoring va sifat menejmenti" 108 soatlik majburiy kurs	Malaka oshirish institutlari	2026-yildan boshlab har 3 yilda	Davlat byudjeti	Professional monitoring kadrlar tayyorlanadi, ichki monitoring tizimi sifatini oshirish va amaliy ko'nikmalarni joriy etish ta'minlanadi.
4	Har maktabda "Sifat kengashi" tuzish va faoliyatini yo'lga qo'yish	Maktab ma'muriyati	2025/2026 o'quv yilidan boshlab	Maktab byudjeti	Jamoaviy boshqaruv va shaffoflik kuchayadi, qaror qabul qilishda keng ishtirok, muammolarni tezkor aniqlash va bartaraf etish imkoniyati yaratiladi.
5	Har chorak yakunida monitoring natijalarini maktab saytida va sinf guruhlarida e'lon qilish (faqat ijobiy dinamika + reja)	Maktab ma'muriyati	Doimiy	–	Ishonch va teskari aloqa mustahkamlanadi, o'quvchilar va ota-onalar faol ishtirok etadi, motivatsiya oshadi.
6	Yillik "Eng yaxshi ichki monitoring tizimi" respublika tanlovi o'tkazish	Xalq ta'limi vazirligi, viloyat hokimliklari	2026 yildan boshlab	Homiylar va byudjet	Rag'batlantirish va tajriba almashish orqali maktablar o'rtasida sifatli monitoring tizimini rivojlantirish va eng yaxshi am

Bu ta’lim sifatini xalqaro darajada baholash va solishtirish imkonini beradi, shuningdek, maktab boshqaruvi va monitoring jarayonlarining sifatini kafolatlaydi. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, umumiy o‘rta ta’lim maktablarida ta’lim sifatini monitoring qilish mexanizmini takomillashtirish faqat nazorat vositasi emas, balki ta’lim jarayonini doimiy rivojlantirish va mukammallashtirishning eng samarali vositasidir.

Ichki monitoring tizimini takomillashtirish orqali o‘quv jarayonining barcha jihatlarini — dars sifatini, o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatini, maktab boshqaruvi va ijtimoiy-psixologik muhitni — tizimli ravishda baholash mumkin bo‘ladi.

Yuqorida belgilangan chora-tadbirlar bosqichma-bosqich amalga oshirilganda, 2030-yilga kelib O‘zbekiston maktablari ichki monitoring tizimi bo‘yicha nafaqat Markaziy Osiyoda, balki global miqyosda yetakchi o‘rinni egallashi kutilmoqda. Bu esa chuqur bilimga ega, hayotiy kompetensiyalarga tayyor va raqobatbardosh yosh avlodni shakllantirishga xizmat qiladi, shuningdek, ta’lim sifatining barqaror va raqamlashtirilgan monitoringi orqali mamlakatning ta’lim tizimi xalqaro standartlarga moslashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ruyxati.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28 yanvardagi PF-60-son Farmoni.

2. Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son Farmoni

3. OECD (2023). PISA 2022 Results: Uzbekistan Country Note. OECD Publishing, Paris. https://www.oecd.org/en/about/programmes/pisa.html

4. ISO 21001:2018 “Educational organizations – Management systems for educational organizations”.

5. N.K.Mamanazarova. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida ta’lim sifatini monitoring qilish mexanizmini takomillashtirish. Международный научный журнал № 30 (100), часть1 «Научный Фокус» Ноябрь, 2025.

6. Safarova R., Musaev U., Musaev P., Yusupova F., Nurjanova R. O‘zbekiston Respublikasida umumiy o‘rta ta’lim strategiyasi muammolari va ta’lim mazmunining yangi modellari, ularni tatbiq etish yo‘llari. – T.: “Fan”, 2005.

7. Формирование стратегии развития высшей школы в экономике знаний – тема научной работы, скачать автореферат диссертации, по экономике бесплатно, 08.00.01 – специальность ВАК РФ (3/4) http://economy-lib.com